

MILLATLARARO MUNOSABATLAR RIVOJIDA MILLIY HAMDA MA'NAVIY QADRIYATLAR TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Umirzoqov Abduvosit Rustam o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti 1- kurs magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada millatlararo munosabatlar rivojida qadriyatlarnig o'rni qay darajada muhimligi hamda qadriyatlar tufayli millatlararo munosabatlar qanchalar mustahkamlanishi ochib berilgan. Milliy qadriyatlar millat, jamiyat tayanchi ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, millat, yoshlar, ma'daniyat, ezgulik, zamon, insonparvarlik, jamiyat.

So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Ushbu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, u o'z faoliyatini yuritmoqda hamda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda. Millatlararo munosabatlar rivojida milliy qadriyatlar o'ta muhim o'rin egallaydi. Ular har bir millatning madaniy o'ziga xosligini aks ettirib, milliy identifikatsiyani mustahkamlash bilan birga, turli millatlar o'rtasidagi hamkorlik va tinch-totuv yashashning negzini tashkil qiladi. Milliy qadriyatlar millatni birlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Ular madaniyat, til, urf-odat va an'analar orqali millatning o'zligini ifoda etadi va xalqaro maydonda o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlar boshqa millatlar bilan madaniy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon har bir millatning o'z qadriyatlarini boshqa madaniyatlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Milliy qadriyatlar turli millatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda asosiy vosita bo'lib, tinchlik va birdamlikni mustahkamlashda muhim ro'l o'ynaydi.

Hozirgi globallashuv davrida milliy qadriyatlar o'zining ahamiyatini yo'qotmaslik uchun ular xalqaro darajada targ'ib qilinishi va zamonaviy rivojlanish talablariga moslashishi lozim. Milliy til va adabiyotlar millatning asosiy madaniy qadriyatlarini saqlab qolishda muhim ro'l o'ynaydi. Urf-odatlar, an'analar, turli milliy bayramlar va marosimlar millatlararo munosabatlarda muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston o'z taraqqiyoti tarixining yangi davriga qadam qo'ydi. Jahon hamjamiyati

“Yangi O‘zbekiston” deya e’tirof etayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida ijtimoiy hayotda adolat va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlanmoqda. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng ma’rifatli jamiyatni qaror toptirishning huquqiy asoslari shakllantirilmoqda. Mamlakatda aholi ma’naviyati va ma’rifatini yuksaltirish O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Hayotimizda ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar tufayli odamlarning ongu tafakkuri o‘zgarib bormoqda. Ayni vaqtda bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan mafkuraviy globallashuv tufayli milliy o‘zlik va milliy g‘ururning rivojiga, millatning intellektual, ma’naviy-axloqiy, etno-madaniy va tarixiy qadriyatlarining barham topishiga, inson tafakkur tarzi va dunyoqarashini toraytirishga, e’tiqodini, ruhiy dunyosini izdan chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani e’tirof etilmoqda. Milliy va an’anaviy umumbashariy qadriyatlar hiralashib, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, individual, korporativ va milliy xudbinlik kabi illatlar ildiz otmoqda. Bu kabi ayanchli holatlarning oldini olish uchun Yangi O‘zbekistonni mustaqil tafakkur va sog‘lom dunyoqarashga, yuksak madaniyat va ma’naviyatga ega, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu narsani alohida ta’kidlash kerakki, har bir xalqning milliy madaniyati va milliy qadriyatlarini bir-biridan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuningdek, milliy madaniyat avval paydo bo‘lganmi yoki milliy qadriyatlarmi, degan savolga javob berish ham mushkul. Ammo, bir narsa aniq: xalq, millat shakllanishi, uning taraqqiyot yo‘lida har ikki fenomen hodisadan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatgan birorta omil bo‘lmasa kerak. Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya, dunyoda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib, axborot va kibermakonlarida qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida o‘z yechimini taqozo etayotgan bir qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda, quyidagilar shular jumlasidan:

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish;

jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish;

millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O‘zbekiston xalqining tarixi va an’analarini o‘rganish bo‘yicha ta’lim, axborot va madaniy-ma’rifiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urf-odatlarini, an'analari, tiliga, konstitutsiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 100 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rnini borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi O'zbekiston fuqarosi ekanligini namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan fikrni bejiz aytmagan. Bashariyat tushunchasi rang-rang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barq urib turadi.

E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg'ulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin. Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barqarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqloq yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi.

O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli o'zbekistonliklarning har bir avlodi milliy istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliy totuvlik va bag'rikenglikni yanada mustahkamlab boradi. Zero, milliy g'oya - barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir.

XULOSA

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslash turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir. Chunki milliy g'oya «aholining barcha qatlamlarida mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda olib borish - bu

zamon talabidir. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur, chunki mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat yo'lini yo'qotishi muqarrar».

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik -turli milatga mansub kishilarning birbirlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urfodati va an'analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uygun ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O'zbekiston 2018.
2. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent Ma'naviyat 2008
3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent O'zbekiston 2017
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020-yil.
5. Abdulla Avloniy: Turkiy guliston yoxud axloq kitobi (qayta nashr www.islom.uz kutubxonasi). – Toshkent, 2008. – B. 8-9.
6. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.07.2021 yildagi O'RK 699-son